

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI  
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**SATTOROV MUSURMONQUL DOSTONOVICH**

**YOSHLAR ONGIDA TABIATGA ESTETIK MUNOSABATNI  
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MASALALARI**

**09.00.04 - Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2023**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)  
on philosophical sciences**

**Sattorov Musurmonqul Dostonovich**

Yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishning  
ijtimoiy-falsafiy masalalari..... 3

**Сатторов Мусурмонкул Достонович**

Социально-философские проблемы формирования эстетического отношения  
к природе в сознании молодежи ..... 23

**Sattorov Musurmonqul Dostonovich**

Socio-philosophical problems of the formation of an aesthetic attitude to nature in  
the minds of young people ..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI  
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**SATTOROV MUSURMONQUL DOSTONOVICH**

**YOSHLAR ONGIDA TABIATGA ESTETIK MUNOSABATNI  
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MASALALARI**

**09.00.04 - Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida  
B2019.2.PhD/Fal348 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Aymatov Aminjon Qudratovich**  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Saidqosimov Akbar Isaxonovich**  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**Tilavov Uktamjon G'ulomovich**  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40; e-mail: [rector@samdu.uz](mailto:rector@samdu.uz). Samarqand davlat universiteti, Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_\_ - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi  
(2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.Sh.Negmatova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**X.A.Djurakulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.R.Samadov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda insonning tabiat, atrof-muhitga bo'lgan munosabati ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu o'z navbatida, tabiat yaxlit tizim sifatida o'ziga nisbatan oqilona munosabatni talab etib, faqat tabiat bilan uyg'unlashgan hayot va uning qonuniyatlariga muvofiq keladigan faoliyat kelgusida insoniyat taraqqiyotini belgilab beruvchi omil bo'lib qolmoqda. Shu ma'noda bugungi rivojlanish jarayonida ishlab chiqarishni ekologik xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqib, texnik va texnologik jihatdan takomillashtirish barqaror taraqqiyotni saqlash va mustahkamlashning zaruriy sharti hisoblanib, fuqarolarda, ayniqsa, yoshlarda tabiatga nisbatan estetik ongning shakllantirish mexanizmlarini aniqlash bugungi global ekologik inqiroz kontekstida yanada dolzarblashib bormoqda.

Jahon ilm-fanida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar global ekologik inqirozning oqibatlarini yumshatishning asosiy yechimlari, ekologik muammolar va ekologik madaniyat, yoshlar ongida tabiatga nisbatan estetik munosabatni shakllantirish masalalari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Xususan, global ekologik tahdidni oldini olish, uning oqibatlarini bartaraf qilish obyektiv zaruriyat sifatida uning mustahkam ilmiy-nazariy, metodologik-konseptual asoslarini yaratishda ekologik ong va madaniyat, xususan ekoestetikaning boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan integrasiyalashish imkoniyatlarini zamonaviy uslubda falsafiy tahlil qilishni talab etmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi mezonlar tizimida tabiatga ekologik munosabat va jamiyat estetik madaniyatining deterministik, sinergetik, tizimlilik mexanizmlarini ilmiy tadqiq qilish zaruriyatini kun tartibiga qo'yimoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, aholining ekologik madaniyatini oshirish va ularda tabiatga estetik munosabatni shakllantirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin"<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan, har bir shaxsda ekologik ong va madaniyatni, ularda tabiatga nisbatan estetik munosabatni shakllantirish, umuman jamiyatda tabiiy atrof-muhit barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq zamonaviy mezon, usul va vositalarini falsafiy tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-son «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida», 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son «2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston" nashriёti, 2021. – Б. 392.

Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» farmonlari va 2018-yil 3-oktyabrda PQ-3956-son "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bugungi kunga qadar yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari olimlarimiz tomonidan yetarli darajada o'rganilmagan. Ekoestetika, ekologik muammolar va ekologik madaniyat masalalari XX asr o'rtalaridan boshlab, ko'plab faylasuf, sotsiolog, tarixchi, siyosatshunos, ekolog va boshqa fan mutaxassislarining tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. Yoshlar ongida tabiatga nisbatan estetik munosabatini shakllantirishning ilmiy-nazariy, ijtimoiy-falsafiy masalalari, muhim ustuvor vazifalari, ratsional metodolik muammolarini o'rganishga doir ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida, jumladan: Xorijlik olimlardan P.G.Oldak<sup>1</sup>, P.Doel, E.G.Moll, K.Garner, M.Valetta, M.P.Radjoneri, E.V.Babina, S.N.Solomina kabi olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida tadqiq etishganlar. Yoshlarning tabiatga estetik munosabatlarini globallashtirish jarayonlari bilan bog'liqligini namoyon qilib iqtisodiy soha va tarmoqlar bilan dialektik birligini taminlash xususan, tabiatga ekoestetik siyosatda menejment va marketing sohalari, asosan xorijlik mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan.

Tabiatga ekoestetik munosabatlarning boshqarilishiga oid tadqiqotlar MDH davlatlari olimlari V.N.Burkov, A.V.Shepkin, A.A.Sergunin, V.N.Fedoseev, A.V. Vozjennikov, D.M.Gvishiani, A.Bagaturov, E.S.Krivosheeva<sup>2</sup> va boshqa shu kabi olimlar tomonidan yoshlar ongida tabiatga nisbatan estetik munosabatini shakllantirishning ilmiy-nazariy muammolari atroflicha tizimli tartibda, nazariya va amaliyot birligi sifatida tadqiq etishga harakat qilishganlar.

Mamlakatimiz olimlardan Ekologik xavfsizlik va barqaror omillari ijtimoiy-falsafiy talqinini yoritishda A.Nig'matov, G'.Pardayev<sup>3</sup>, M.Mamanazarov, O.Mannopova, H.Ahmedov, S.Mamashokirov<sup>4</sup>, O.Qosimovlar tomonidan, shaxs ekologik huquqiy, axloqiy ongini va falsafiy estetik masalalari esa A.Aymatov, M.Bahodirov, A.Valiyev, I.Jabborov, A.Zikiryaev, M.Imomnazarov, I.Mo'minov, R.P.Mamatqulov, Q.Nazarov, S.Sanginov, B.Sarimsoqov, S.Shermuhamedov, E.Yusupov, U.Qoraboev, M.A.Umarova, X.Shayxova, G.Sh.Shermatova,

<sup>1</sup> Ольдак. П.Г. Формирование современного экономического мышления. Москва. 2011-Б-102

<sup>2</sup> Кривошеева. Е.С. На пути к экологическому сознанию. История и культурология. Вестник Красгау.-2010. 32-40.

<sup>3</sup> Нигматов. А. Пардаев. Ф. Экологик хавфсизлик ва барқарор ривожланиш. -Т.2005

<sup>4</sup> Мамашокиров С. Экологик барқарорлик омиллари. Тафаккур.2005.

E.S.Hoshimova, S.Xudoynazarov X.A.Djurakulov<sup>1</sup>, U.Xo‘janazarov, O.G‘aybullaev R.P.Mamatqulov<sup>2</sup>, A.R.Samadov<sup>3</sup> kabi olimlarimiz tomonidan salmoqli ishlar olib borilgan.. Xususan, O‘zbekistonda yoshlar ongida tabiatga nisbatan estetik munosabatni shakllantirish masalalarini atroflicha o‘rganilib tahlil qilishganlar. Biroq ushbu tadqiqotlarda yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari

falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etilmagan. Aynan ushbu holat mavzumizning ilmiy nuqtai nazardan dolzarbligini ko‘rsatadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining ilmiy-tadqiqotlar rejasiga muvofiq PZ-20170930369-sonli “Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi g‘oyaviy, mafkuraviy va axbarot xurujlariga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizm va texnologiyalarni yaratish” mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

tabiatni inson tomonidan ekoestetik o‘zlashtirishda epistimiologik yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berish;

inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat shakllarining xronologik evolyutsion tahlilini amalga oshirish;

tabiatni inson tomonidan ma’naviy o‘zlashtirishni kulturologik, estetik, aksiologik va praksiologik jihatlarini yoritib berish;

ekotizimga nisbatan oqilona munosabatni shakllantirishda yoshlar estetik ongini sog‘lomlashtirishning sinergetik mohiyatini tizimli murakkab faoliyat shakli sifatida tahlil qilib berish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishning ijtimoiy falsafiy masalalari tanlab olingan.

**Tadqiqot predmeti** yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishni ijtimoiy falsafiy xususiyatlarini ilmiy asoslab berish bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning usullari** Tadqiqot jarayonida dialektika, mantiqiylik, taqqoslash, umumlashtirish, qiyosiy tipologik, faktorial tahlil, sinergetika, tarixiylik va solishtirish va olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish kabi falsafiy usullardan foydanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

zamonaviy tabiatshunoslik konsepsiyasining sinergetik yondashuv (murakkablik, tizimlilik, nochiziqlilik)ga asoslangan tamoyillari bugungi global

---

<sup>1</sup> Джуракулов Х.А. Замонавий экотуризм ривожда шахс экологик ҳукукий онгини юксалтириш зарурияти фалсафа фанлари доктори ( DSC) дис.. автореф.-Самарқанд.2022.Б.72.

<sup>2</sup> Маматкулов. Р.П. Ўзбек халқи ахлоқий қадриятларида табиатга оқилона муносабат ва унинг ҳозирги кундаги аҳамияти : Фал.ном....дис...автореф.-Тошкент.2006.26.6

<sup>3</sup> Самадов А.Р Шахс эстетик идеалининг шаклланиши ва ривожланиши муаммолари фалсафа фанлари доктори ( DSC) дис.. автореф.-Самарқанд.2020.Б.72.

ekologik beqarorlik sharoitida yoshlarda ekotizimga nisbatan ratsional munosabatni shakllantirish omili ekanligi isbotlangan;

yoshlar ekologik ongi, madaniyati va ekoestetik dunyoqarashini yuksaltirishda ta'lim-tarbiya tizimiga konstruktiv ta'sir etuvchi kognitiv yondashuvning praktsiologik jihatlarini takomillashtirish zaruriyati asoslangan;

tabiat go'zalliklarini inson tomonidan badiiy-estetik idrok etishning gedonistik-huzur halovat, utilitar-amaliy-oqilona, rasional-umumestetik asoslari aniqlangan;

tabiiy resurslarni o'zlashtirishning ekoturizm, ekokommunikasiya, sayohat obektlari kabi estetik shakllari davrlashtirilib, insonni tabiatga nisbatan estetik munosabatining dinamik xronologiyasi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quydagilardan iborat:

yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatni shakllantirish mamlakatimiz, mintaqamizda mavjud bo'lgan bir qator kompleks muammolarning echimini topishda muhim amaliy ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan;

yoshlar ongida estetik tafakkurni rivojlantirishning qadriyatli, praktsiologik jihatlar mavjudligi va bu jihatlar yoshlarda tabiatga nisbatan garmonik munosabatni tarbiyalash borasidagi ishlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir qilishi ko'rsatilgan;

yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishda samarali xizmat qiladigan metodologik yo'l-yo'riqlar, uslubiy qo'llanma sifatida foydalanishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

falsafa, etika, estetika, jamiyatshunoslik, ijtimoiy falsafa fanlarini tabiiy fanlar bilan bog'lab o'qitishda o'quvchilarda ekologik ong va estetik tafakkurni shakllantirishga doir tayyorlangan tavsiyalardan ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratishda nazariy metodik qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalardagi chiqishlari, tadqiqot ishi yuzasidan berilgan xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tabiat va inson o'rtasidagi munosabat shakllarini tizimli o'rganish, ushbu murakkab sistemani nohiziqli tafakkur yordamida chuqurroq anglash, falsafiy tahlilini amalga oshirish va tabiat va inson o'rtasidagi munosabatini tadqiq etuvchi nazariy fundamental tadqiqotlar va metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, uning natijalari asosida berilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan aholining ekologik bilimi va savodxonligini yuksaltirishda, ularning ekologik savodsizligini bartaraf etishda, aholi o'rtasida ekologik-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishda, ta'lim muassasalarida mavzuga bog'liq

bo'lgan o'quv va o'quv metodik qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalarini takomillashtirish doirasida ishlab chiqilgan ijtimoiy-siyosiy takliflar asosida:

zamonaviy tabiatshunoslik konsepsiyasining sinergetik yondashuv (murakkablik, tizimlilik, noxiziqlilik)ga asoslangan tamoyillari bugungi global ekologik beqarorlik sharoitida yoshlarda ekotizimga nisbatan ratsional munosabatni shakllantirish omili ekanligiga oid taklif va xulosalardan O'zbekiston ekologik harakati Markaziy Kengashining 2019 yilga mo'ljallangan dasturiy vazifalarni samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan "Ekologik muammolarni hal etishda jamoatchilikning o'rni", "Yurt ozodaligi va obodligiga hissa qo'shaylik" va "Jamoatchilik ekologik nazorati tizimini takomillashtirish" kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbir dasturining sseynariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston ekologik harakati Markaziy kengashining 2022-yil 14-martdagi 03-40-son ma'lumotnomasi). Natijada, fuqarolarning atrof-muhit muhofazasiga oid bilim va ko'nikmalarini hosil qilish, ularning estetik ongini va tafakkurini sog'lomlashtirishda tabiatga estetik munosabatni takomillashtirishga xizmat qilgan;

yoshlar ekologik ongi, madaniyati va ekoestetik dunyoqarashini yuksaltirishda ta'lim-tarbiya tizimiga konstruktiv ta'sir etuvchi kognitiv yondashuvning praksiologik jihatlarini takomillashtirish zaruriyatiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Yoshlari agentligi tomonidan amalga oshirilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida foydalangan (O'zbekiston Yoshlari agentligining 2022-yil 12-apreldagi 4-13-13-977-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarda ekologik ong va estetik tafakkurni shakllantirishga doir ma'ruza matnlarini yaratishda va targ'ibot vositalarining nazariy - metodologik asoslarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

tabiat go'zalliklarini inson tomonidan badiiy-estetik idrok etishning gedonistik-huzur halovat, utilitar-amaliy-oqilona, rasional-umumestetik asoslariga oid taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022 yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi IV yo'nalishiga oid Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va "Besh muhim tashabbus" doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturining 18-bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-yil 13-iyuldagi 02/02-1171-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz yoshlari ongida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishga xizmat qilgan;

tabiiy resurslarni o'zlashtirishning ekoturizm, ekokommunikasiya, sayohat obektlari kabi estetik shakllari davrlashtirilib, insonni tabiatga nisbatan estetik munosabatining dinamik xronologiyasiga doir taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyat tetradiokompaniyasining 2022-yilda efirga uzatilgan "Assalom Samarqand" va "Ma'naviyat ko'zgusi" ko'rsatuvini dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 28-fevraldagi 01-11/798-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarda tabiatga estetik tafakkurni rivojlantirish va tabiatga estetik madaniyat sifatlarini rivojlantirishda

nazarya va amaliyot birligi muammosi izchillikda takomillashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy maqola, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot matnining **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi va ilmiy yangiligi asoslangan. Ilmiy ishning mamlakatimiz fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan. Izlanishlar jarayonida olingan natijalarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari»** nomli birinchi bobining **“Insonda atrof-muhitga estetik munosabatni shakllanishi va ekologik ongni rivojlanishi”** deb nomlangan birinchi paragrafida quyidagi ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlar bayon qilingan. Ijtimoiy ong shakllarining har biri o'z tadqiqot predmetidan kelib chiqib yoshlar tarbiyasiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Insonda ekologik ongni shakllanishining doim ikki sharti, ya'ni oilada ekologik ta'lim va institutsional darajadagi ekologik ta'lim ta'kidlanib kelingan. Ekologik ong shakllanishida **“ideal variant - bu ikki omil bir vaqtning o'zida ishlaganda amalga oshadi.**

Dastlab inson va tabiat bilan mifologik qarashlar, g'oyalar sababli birga yashagan bo'lib, o'zini tabiatdan tashqarida hisoblamagan. Turli ibtidoiy dinlarda, keyinchalik, milliy va jahon dinlarida ham buni aksini ko'rish mumkin. **“Zardushtiylik dinining ekologik urf-odat va bayramlari. Tabiat-jamiat-inson tizimi munosabatlarini uyg'unlashtirish, jamoa tartibini mustahkamlash, tashqi tabiiy ta'sirlardan saqlanish insonning tabiatga bog'liqlik hissiyotlarini estetik didini tabiiyalashga xizmat qilgan”<sup>1</sup>.**

**“O'zbek tilining izohli lug'atida” “muhit” tushunchasiga xususan shunday ta'rif beriladi: “Hayot, faoliyat kechadigan tabiiy yoki ijtimoiy sharoitlar majmui”<sup>2</sup>.**

---

<sup>1</sup>Айматов А.Қ. Шахнинг табиятга экоэстетик муносабатини шакллантириш масалалари. Монография. -Т. 2017. -Б. 11

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати/А.Мадвалиев таҳрири остида. –Т.: Ўзб.миллий энцикл., 2006. – Б.663.

Ekologik muhit deganda muayyan hududdagi ekologik vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari, turli subyektlar orasidagi ekologik munosabatlarning xarakteri, mavjud ekologik muammolarning tabiati tushuniladi.

Yoshlar ekologik ongi – sog'lom turmush tarzining muhim mezonlaridan biri bo'lib, yurtimizning go'zal va betakror tabiati va atrof-muhitini asrab-avaylash yoshlar oldidagi muqaddas burch va oliy vazifamiz hisoblanadi. Yoshlarni ekologik madaniyatini shakllantirishda malakali ustozlarning ekoestetik tarbiya borasidagi xizmatlari juda muhimdir.

Oilada sog'lom ekoestetik madaniyatni shakllantirish va yoshlar tarbiyasini yuqori natijalarga ko'tarish uchun ota-onalar ham o'zlarining amaliy ishlari bilan o'rnak bo'lmoqliklari lozim. Oiladagi sog'lom tarbiya, sog'lom ekoestetik muhit oilaviy munosabatlar madaniyatiga bog'liq. Bunda ekologik faoliyat-shaxsning ekologik, axloqiy va estetik hodisalarga ongli, madaniy munosabati bo'lib, u tabiatni muhofaza qilish sohasidagi amaliy faoliyat yo'nalishlarining, faollik darajasini belgilab turadi.

Ekoestetik madaniyatni yuksaltirishning strukturaviy elementlari va turli yo'nalishlari o'rtasidagi bog'lanishlarni, tarixiy-axloqiy merosga vorisiylik munosabatlarini aniqlash mumkin, ya'ni:

1. Ekoestetik faoliyatni maqsadi tabiatni muhofaza qilish madaniyatining obyektivligi va tarixiy zaruriyatidan kelib chiqadi.

2. Ekologik xavfning reallashuvi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayot yo'nalishlariga ta'siri, eng avvalo, jamiyatning estetik, axloqiy-psixologik holatida namoyon bo'ladi.

3. Har bir davrda ekologik bilimlar jamiyatning ekoestetik madaniyati, intellektual salohiyati rivojlanish darajasi texnik-texnologik imkoniyatlari doirasida amalga oshiriladi.

4. Ekologik barqarorlikni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish-jamiyat madaniyatining yo'nalishlarini ekologiyalashtirish siyosiy vaziyatning barqarorligini taqozo qiladi.

5. Ekoestetik munosabatlarga doir davlat siyosatining samaradorligi, uning amaliyot ko'lamida, xususan tabiatni muhofaza qilish madaniyati darajasida namoyon bo'ladi.

Jamiyatning har bir sohasidagi barqarorlik muammosi, muqarrar ravishda, yoshlarning tabiat bilan oqilona ekoestetik munosabatlariga borib taqaladi. Ya'ni, «inson va tabiat», «inson va jamiyat» o'rtasidagi ekoestetik madaniy munosabat – «tabiat-jamiyat-inson» mavjudligining, mutanosib barqaror rivojlanishning namoyon bo'lishidir. Shuning uchun, axloqiy va estetik tarbiyalardagi barqarorlik muammolarini ekologik munosabatlardan ajratib tahlil qilish ko'proq g'alizliklarga olib keladi. Chunki, ekologik, axloqiy va estetik kabi ijtimoiy ong shakllarining har biri yo'nalishi, o'z mazmuniga ko'ra, uning subyektlari bo'lgan konkret shaxs va muayyan ijtimoiy birliklarning tabiat bilan bog'lanishlaridan iborat bo'ladi.

Ushbu bobning **“Inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabat shakllarining rivojlanish bosqichlari”** deb nomlangan ikkinchi paragrafi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish ularni subyekt sifatida bir butunlikka birlashtirish imkoni, inson hayoti davomida va o'zaro ta'sir qilishning

mumkin bo'lgan variantlarini amalga oshirish hamda tizimlararo rivojlanish holati mantiqiy jihatdan ko'rsatilgan.

Tarixiy jihatdan insoniyat jamiyatining ekologik ongini shakllantirish antropotsentrik va ekotsentrik tendensiyalarni ajratish mumkin. Antropotsentrik tendensiya: insonning tabiat olamiga yuqori darajadagi psixologik inklyuziyasi, antik davr tafakkuri, tabiatni faqat inson faoliyatining obykti sifatida qabul qiluvchi o'rta asr madaniyati, XVII asrda vujudga kelgan dekartizmdir. Ekosentrik tendensiya: XIX-XX asrlar oxirida AQSHda paydo bo'lgan envayromentalizm, rus kosmizmi, biosfera-noosfera ta'limotlarida, izohlab o'tilgan.

Tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar tarixini bir nechta bosqichlarga bo'lish mumkin. Ya'ni **birinchi bosqich**. Inson tabiatga faqat o'zining mavjudligi bilan ta'sir qiladi, ov, baliq ovlash, terimchilik bilan o'zlashtirish asosida yashaydi. Turli xalqlar uchun "boshlang'ich" sharoitlarning farqlanishi tarixiy jarayonning rang-barangligiga, xalqlar taqdiri, an'ana va urf-odatlarining xilma-xilligiga olib keldi.

**Ikkinchi bosqich**. Qishloq xo'jaligi va chorvachilik vujudga keldi, o'zlashtiruvchi iqtisodiyotdan ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga o'tildi. Inson tabiatga faol aralashishni, o'z faoliyati natijalarini rejalashtirishni boshladi. O'rmonlar kesildi, sun'iy sug'orish tizimlari qurilib, go'yoki inson tabiatni o'ziga bo'y sindirdi.

**Uchinchi bosqich**. Sun'iy turar joylar, shahar, aholi istiqomat qiluvchi joylar va unga kerak bo'lgan ta'minot uchun ishlab chiqarish – sanoat hududlarining paydo bo'lishi, odamlar soning oshishi bilan ehtiyojlarini qondiruvchi infratuzilmalar yaratildiki, bu – qayta tiklanmaydigan energiya resurslarini o'tmishga aylantirdi. Endi inson global ekologik muammolar bo'sag'asida yashay boshladi.

**To'rtinchi bosqich**. Sanoat ishlab chiqarilishi global miqyosda rivojlandi. Butun sayyorani qamrab olgan materiya va energiyaning ulkan migratsiya davri boshlanadi. Bunda insonga yordamchi bo'lgan dastlabki ichki yonuv divigateli taraqqiy etib, gaz-neft mahsulotlarini iste'molchisiga aylandi.

**Beshinchi bosqich**. Sayyoramizda aholi sonining keskin o'sishi va yer sayyorasi qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Shu bilan birga, o'tgan asr insoniyatga raqamlarning keskin sakrashini, harbiy, milliy to'qnashuvlar insoniyatni boshi berk yo'nalishlarda ishlashga undadi. Olimlar bu bosqichni aholi portlashi va yangi texnologiyalar davri deb atay boshladilar.

Ekologik tizimlar katta maydonlarda va keng miqyosda global buzilishi ko'plab ijtimoiy falokatlarini keltirib chiqardi. Sanoat inqilobi natijasida tabiatni o'zlashtirishning eng effektiv usuli sifatida industrial ishlab chiqarish hukmronligiga va texnikani rivojlantirishga o'tildi. Industrial jamiyatning rivojlanishi natijasida insonning iste'molchilik faoliyati, yangicha ishlab chiqarish usuli ekologik vaziyatning kuchayishiga olib keldi.

Qadimgi diniy - mistik kitoblarda tabiat insonning yashash makoni haqidagi fikr va mulohazalar, hattoki, majburiy-me'yoriy ko'rsatmalar bo'lib kelgani haqida ma'lumotlarni tasdiqlaydi. Yevropa, ayrim Osiyo va Shimoliy Amerika mamlakatlarida nafaqat tabiat resuslaridan samarali foydalanish, balkim uni asrab-

avaylashga bag'ishlangan bir qator qonunlar qabul qilindi va o'sha qonunlar asosida ekologik chora-tadbirlar amalga oshirildi. Insoniyat o'sha davrda postindustrial-neogen munosabat shakliga o'tib inson va tabiat o'rtasidagi yangi munosabat shakli, ya'ni- iqtisodiy-ekologik shakl yuzaga kelishini ta'minladi. Bu davrda informatsiya ishlab chiqarish hukmronligida yangi ekologik jamiyatni yaratish jarayonida inson va tabiat o'zaro munosabatini garmonizatsiyalash ekologik sharoitni tuzatish masalalari asos bo'lib qoladi.

Ushbu bobning **“Tabiatga ekoestetik munosabatni shakllantirishda ijtimoiy muhitning ahamiyati”** deb nomlangan paragrafida ekologik inqiroz holatini baholashda ishlab chiqilgan nazariya va konsepsiyalarda nazarda tutilgan asosiy g'oya hamda tamoyillar asosida yoshlarni tabiat ne'matlariga nisbatan estetik munosabatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy mazmunini boyitish hamda nazariy metodologik asoslarini rivojlantirish asosiy masala ekanligi ko'rsatilgan.

Falsafiy adabiyotlarda tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar muammosiga Rossiya koinotchilari va ekologlari (L.E.Grinin, N.F.Fedorov, K.E.Siolkovskiy, V.S.Solovyov, N.G.Xolodniy, V.P.Tugarinov) ko'proq inson huquqlari doirasida fikr yuritishgan. Falsafada insonning tabiat bilan muloqotida turli asoslar - “aql va nazorat” (koinotchilar nuqtai nazari) yoki “sevgi va uyg'unlik” (ekologlarning nuqtai nazari) orqali o'zgaruvchanlik rolini taklif qiladi. Ushbu ko'rib o'tilgan tendensiyalarda inson va tabiatning uyg'unligi va ijtimoiy munosabatlari tahlil qilindi, lekin inson yashaydigan muhitini, etnopsixologiyasini hisobga olmadilar.

Tatqiqotda inson va tabiat uyg'unligi va ekologik go'zallik hozirgi davr ijtimoiy munosabatlarini markaziy tushunchalariga aylanishi kerak. Tabiat-insonning o'zaro ta'sirlashuvi ekologiya-estetika tushunchalarini o'zaro yaqinlashtirib yangi qadriyatlarni keltirib chiqarmoqda. Bularni shartli ravishda ekoestetik qadriyatlar deyish mumkin.

Ijtimoiy inqirozlar natijasida jamiyatlar o'z hayot faoliyatini qayta tashkil qilish, inson resurslarini yana ko'paytirishi mumkin. Tabiiy inqirozlar bu-ortga qaytmaydigan jarayon bo'lib, qayta tiklanmaydigan shaklda uchraydi. Jamiyat va tabiiy muhit “yagona tizimni tashkil qiladi va ular o'rtasida bunga xos bo'lgan jarayonlar sodir bo'ladi:

1) moddalar almashinuvi; 2) o'zaro ta'sir qilish; 3) o'zaro konvertatsiya qilish; 4) har ikkala element uchun umumiy ta'lim”<sup>1</sup>.

Madaniyat, insonning o'zi va boshqa odamlar bilan uyg'un, mas'uliyatli munosabatlarini shakllantirish, ekologik axloqni rivojlantirish, ijtimoiy darajadagi ekologik o'zaro ta'sir, bizning fikrimizcha, bugungi kunda eko-estetikaning rivojlanmagan sohasidir. Ekoestetika rivojlanishining ushbu bosqichida asosiy e'tibor shakllanish muammosiga qaratiladi. Insonning tabiatga qadriyatli-estetik munosabati va tabiiy estetik qadriyatlarning shaxsiy rivojlanishi. Ekoestetika faqat ijtimoiy darajadagi ekologik o'zaro ta'sir muammosini ko'taradi, lekin uni batafsil ko'rib chiqmaydi.

---

<sup>1</sup> Гринин Л. Е. Природный фактор в аспекте теории истории. Философия и общество. –М.: 2011. -С. 171

Ijtimoiy darajadagi ekologik o'zaro ta'sir muammosi ijtimoiy ekologiya sohasidagi tadqiqotlarda (F.I.Girenok, E.V.Girusov, V.D.Komarov, Yu.G.Markov, D.J.Markovich va boshqalar) o'rganilgan. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning umumiy falsafiy muammosi (V.G.Vinenko, A.S.Goroxov, I.Ya.Loyfman, N.N.Moiseev, Yu.L.Trusov, K.T.Frolov, A.G.Shevsov va boshqalar) o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganishda tahlil qilinadi. Atrof-muhit psixologiyasi (M.Chernushek, G.A.Kovalev), xulq-atvor ekologiyasi (V.I.Panov), atrof-muhit psixologiyasi, ekologik psixopedagogika (S.D.Deryabo, B.T.Lixachev, V.A.Yasvin) kabi ilmiy yo'nalishlar doirasida shaxs va uning muhiti sifatida tadqiq etilgan.

Ijtimoiy ekologiyadan tortib, o'zaro ta'sir etuvchi, ziddiyatli masalalar, shaxsning psixologiyasiga, pedagogik masalalarga bog'liq muammolar inson va tabiatning tamoyillariga, bog'liqligini ko'rish mumkin. Inson uzoq vaqtlar tabiat va tabiiy hodisalarni qarama-qarshi turgan obyekt sifatida tushundi va unga nisbatan ba'zida shavqatsizlik qildi, tabiatdan ehtiyoj uchun foydalanib, me'yor, mezon, gunoh va uvol kabi ham ijtimoiy-axloqiy, ham diniy ma'nolarga ega konsepsiyalarni bajarmay keldi. Endi inson tabiatdagi qaytarilmas o'zgarishlarni ko'rib, kelajakda kollaps holatidan shubhalanib qoldi. Endi insoniyat kelajagining senariysini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lmoqda. Hamma narsani ikki qutb asosida tahlil qilish, insoniyat tarixini qarama-qarshiliklar ziddiyatini mahsuli deb bilishi juda qimmatga tushdi.

Ijtimoiy ekologiya shakllanishi va rivojlanishi ham odamlarning amaliy ehtiyojlari sababli yuzaga kelgan. Bunday uyg'un fan keyingi o'n yillikda tabiiy ijtimoiy va texnikaviy fanlar tutashgan joyda jadallik bilan shakllanib bormoqda. Faqat shu fangina jamiyat va tabiatning o'zaro ta'sirini sifat jihatidan yangi sistemali o'rganishga va tabiatdan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga qodirdir. Ekologik va estetik qadriyatlar insonning "inson – tabiat – jamiyat" tizimidagi shaxsiy ahamiyatga molik munosabatlari sohasi bilan bog'liq bo'lib, uning hayot tarzida yaxlit tarzda mujassamlanadi: jamiyat sohalarida mas'uliyatli, tabiat bilan uyg'un, tabiiy hayotni qutqaruvchisi sifatida shaxslarni tarbiyalash bu masalani birinchi yechimi bo'ladi. Ekoestetik g'oyalarni rivojlantirish va ular asosida yosh avlodni tarbiyalashda eko-estetik yondashuv konsepsiyasini shakllantirish jamiyat va tabiatning barqaror rivojlantirish zarurligi to'g'risidagi qoidalar alohida ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Yoshlarda tabiatga estetik munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-madaniy asoslari"** deb atalgan. **"Yoshlarda ekoestetik madaniyatni rivojlantirishda mehnatning o'rni"** deb nomlangan birinchi paragrafida taqqoslash va umumlashtirish tamoyilidan kelib chiqqan holda quyidagi mantiqiy fikrlar bayon qilingan.

XXI-asrning so'nggi o'n yilliklarida insoniyat jamiyati asosan iste'molchilikka asoslangan "ommaviylik jamiyati" tomon shakllanib borishini E.Agatssi, J.Bodriyar, B.V.Markov, A.To'ffler, E.Fink, E.Fromm, J.Habermaslar o'z tadqiqotlarida yaqqol namoyon qildilar. Mehnat qilish va munosib turmush

tarzi masalasi iste'molchilik jamiyatida o'zgarib kam mehnat qilib yaxshiroq yashash tarzi oshib bormoqda. Inson mehnat qilish orqali tabiatga ta'sir o'tkazib o'z tajribasini oshirib borar ekan, u tabiat va jamiyat o'rtasida bog'lovchi sifatida ekologiyani estetiklashtiradi. Mehnat tufayli inson tabiatga shakl berar ekan, avvalo o'z qarashlariga, bilim va tajribalariga shakl beradi. "Mehnat tarbiyasi - tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, intizom batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldinroq paydo bo'lgan. Mehnat tarbiyasi g'oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo'lib, "mehnat ta'limi", "kasbga yo'naltirish", "kasb ta'limi" singari tushunchalarni o'z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasini berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan"<sup>1</sup>.

Yoshlarni mehnatga o'rgatish, jismoniy faol bo'lishga ko'niktirish, bizning fikrimizcha quyidagilar bilan bog'liq: 1) umuminsoniy qadriyatlar va zamonamizning insonparvarlik g'oyalari, shu jumladan ekologik-madaniy qadriyatlar va sog'lom turmush tarzi haqidagi g'oyalarga muvofiq yangi axloq asoslarini shakllantirish; 2) jamiyat bilan uyg'un munosabatda bo'lishga va madaniyatga organik ravishda kirishga qodir shaxsning ijtimoiy asoslarini shakllantirish; 3) mustaqil, erkin faoliyat ko'rsatish ijodiy faollikni rivojlantirish bilan mehnatga undash; 4) yoshlarning hissiy tajribasiga, dunyoni bilishning amaliy indikativ va obrazli shakllariga asoslangan aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish; 5) mehnatga halol munosabatni shakllantirishda diniy qarashlarni shaxsiy sifatlar bilan uyg'unlashtirish va optimistik dunyoqarashni shakllantirish.

Yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi bo'lmish maqollardan keng foydalanishimiz darkor. "Halol mehnat - yaxshi odat, berar senga baxt-saodat", "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik" shular jumlasidandir.

Tarixdan ma'lumki, ajdodlarimiz yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishgan. Tarbiyani tizimlashtirish aqliy tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, hunar o'rgatish (Abu Ali Ibn Sino), ta'lim jarayonida shaxsiy namuna, shaxsiy o'rnak hamda ko'rgazmalilik, mehnat orqali kun kechirish, halollik, o'z ehtiyoji uchun o'zi mehnat qilish, mehnat qahramoni bo'lish (Alisher Navoiy) kabi tarbiya va ta'limga tegishli bo'lgan metodologiyani ilgari surganlar. Samarqand jadidchilaridan bo'lgan "Abduqodir Shukuriy birinchi bo'lib maktablarda mehnat va musiqa darslarini kiritdi. U bolalarni qishloq xo'jalik va bog'dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgatar edi"<sup>2</sup>. Bundan ko'rinib turibdiki Abduqodir

<sup>1</sup> Тарбия (Ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия). -Т. Давлат илмий нашриёти, 2010. -Б. 278-279.

<sup>2</sup> Ниёзов Г., Аҳмедов Қ., Тожибоев Қ. Шарқ алломалари ва маърифатпарвар адибларнинг баркамол авлод тарбиясига оид маънавий-ахлоқий қарашлари. -Т.: Ўзбекистон, 2010. -Б.71.

Shukuriy yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiya qilishni yoshlikdan boshlab o'rgatish lozimligini maktab misolida ko'rsatib bergan.

Ekoestetika inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik falsafasini o'zida mujassam etgan va quyidagi pozitsiyalarga asoslanadi:

**birinchidan**, tabiiy va ijtimoiy muhitning estetik qadriyatlari sintetik bo'lib, ular axloqiy-huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan;

**ikkinchidan**, yoshlarning axloqiy va estetik tarbiyasining asosida atrof-muhit, tabiatdan kelib chiqadigan tamoyillarni ko'paytirish, san'atni tabiatdan ilhomlanuvchi qismini yoshlar uchun tarbiya usuli sifatida qabul qilish, inson va tabiat go'zalligini uyg'unligini ta'minlashini semantik talqin qilish zarur.

**uchinchidan**, tabiatning uyg'unligi, mutanosibliги insonning barcha sifatлари bilan bog'langan voqea-hodisalarni mohiyatini ochib beradi. Insonni mehnat qilishi bir tomondan axloqiy sifatlarini yaratadi, shakllantiradi, ikkinchi tomondan uni tabiat, atrof-muhit bilan muloqotini ta'minlaydi. Bu albatta tabiat va insonni mohiyatan birligini o'rganuvchi ekosofiya sohasini yanada rivojlanishiga olib keladi;

Ushbu bobning **“Tabiatga estetik munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari”** nomli ikkinchi paragrafida quyidagi ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlar bayon qilingan.

Yoshlar ongida ekologik madaniyatni shakllantirish orqali axloqiy-estetik madaniyat bilan dialektik aloqadorligini rivojlantirish muammolarini ilmiy tadqiq etish dolzarb vazifalarimizdan biridir.

An'anaga ko'ra, ilmiy tadqiqotlarda ekologik, estetik, axloqiy, tarbiyaviy masalalar san'at orqali hal qilinishini ko'rish mumkin. Zamonaviy tadqiqotlarda san'atni bitta shakli bo'lgan musiqaning tarbiya va ta'lim jarayonlariga ta'siri, ekologik va axloqiy-estetik tarbiyadagi o'rni, turlicha yondashuvlar orqali tahlil qilingan. Musiqa san'ati vositalaridan foydalangan holda ekologik ta'limning pedagogik asoslari belgilab berilgan. “Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, musiqa vositalaridan foydalangan holda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida atrof-muhit bilan o'zaro munosabatning hissiy tomoni: o'smirlarga sezgirlik, hayratlanish hissi, idrok, ishtiyoq, tabiatga hissiy ijobiy munosabatlarni shakllantiradi.

Ijobiy fazilatga ega bo'lgan kishilar tabiat go'zalligiga o'z hissalarini qo'shadilar, bu jarayon esa ijtimoiy hayotda ekologik bilimlarning rivojlanishini tezlashtiradi. Inson bolasi ham bu yorug' olamga shunchaki kelmaydi. “Axloq borasida tubanlashish oson, lekin yuksalish qiyin, axloqiy bo'hronga qarshi kurashishdan ko'ra uning oldini olish oson. Qayta oyoqqa turish qiyinligini anglagan kishi yiqilmaslikka harakat qiladi”<sup>1</sup>. Komillikning har bir davrga xos ijtimoiy mezonlari mavjud. Buning boisi shuki, odamzod aqliy, axloqiy -estetik, jismoniy va ruhiy rivojlanish nuqtai nazaridan bir-biridan farqlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, ona tabiatimizda yuzaga kelayotgan barcha muammolarning

<sup>1</sup> Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. -Т. Университет. 1998. -Б. 82.

yechimi ma'naviy–axloqiy jihatdan yetuk kishilarning fidokorona, halol mehnati, hamkorligi, imon-e'tiqodi asosida ro'yobga chiqadi.

